

V.MULTIMEDIANING ASOSIY TUSHUNCHALARI. AUDIO VA VIDEO AXBOROTLAR BILAN ISHLASH ASOSLARI.

Reja:

V.1.Multimedia tushunchasi. Multimedia tizimlari

V.2.Multimedia imkoniyatlari. Multimedianting axborot ta'minoti.

V.3.Multimediyaning dasturiy ta'minoti. Multimediyaning texnik ta'minoti.

V.4.Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari.

V.5.Taqdimotlar muharrirlari, ularning vazifasi va imkoniyatlari. Standart shablonlar asosida taqdimotlarni yaratish.

V.6.Taqdimot slaydlarini boshqarish. Slaydlar ustida amallar. Slaydlar shakllari va bezash.

V.7.Taqdimot slaydlarida obyektlardan foydalanish. Animatsiya effektlari. Taqdimot namoyishini boshqarish.

V.8.Talabalarining ma'naviy dunyoqarashi va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish.

V.1. Multimedia tushunchasi. Multimedia tizimlari.

90-yillarga kelib shaxsiy kompyuterlarning quvvati yetarlicha rivojlangach, kompyuterning ovoz va video bilan ishlash masalasi o'rtaga tashlandi. Bu muammolarni hal qilish uchun foydalanuvchilar orasida multimedia deb nom olgan texnik uskunalar yaratildi. Bu uskunalar tarkibiga ovoz kartasi, ovoz kuchaytirgich va karnay hamda kompakt disk nomini olgan doimiy tashqi xotira diskyuritkichi kiradi. Bu uch qurilma bilan ta'minlangan kompyuterlar multimedia kompyuterlari deb ataladi. ¹

Ovoz bilan video kompyuter imkoniyatlarini qanchalik kengaytirganligini sezish uchun kompyuteringizning ovoz karnaylarini o'chirib qo'ying va ovozsiz ishlashga qancha vaqt sabringiz yetishini tekshirib ko'ring. Aminmanki, bir soat ham o'tmay ovozni yana yoqib qo'yasiz.

Multimedia so'zi nimani anglatadi? Media so'zi juda ko'p uchraydi va u ko'pincha muhit deb tarjima qilinsa-da, muloqot degan ma'noda ham

¹ <https://kompy.info/axborot-texnologiyalari-talim-jarayonida.html>

ishlatiladi. Kompyuter multimediali bo'lishi uchun birinchidan, multimedaning texnik ta'minoti, ikkinchidan, uning dasturiy ta'minoti va uchinchidan, multimedia axborotlari mavjud bo'lishi kerak.

Multimedia - tizimlar hozirgi paytda ta'lim va kasbga tayyorlash sohasida, nashriyot faoliyatida (elektron kitoblar), biznesni kompyuterlashtirish uchun (reklama, mijozlarga xizmat ko'rsatish), axborot markazlarida kutubxona, muzey) va hokazolarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bilimlarni chuqirlashtirishda, o'qitish muddatini qisqartirishda va bir o'qituvchiga tinglovchilar sonini oshirishga imkon beruvchi kompyuterli dars beruvchi multimedia tizimlar alohida o'rin egallaydi. Kompyuterli dars berish tizimlari axborot izchil ravishda taqdim etiladigan videokassetadagi kurslarga qiyoslaganda kuchli tarmoq imkoniyatlariga ega va tinglovchilarni qiziqtirgan mavzuga to'g'ridan-to'g'ri ulanishga imkon beradi. Bundan tashqari, mazkur tizimlar bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikmalarga ega bo'lish jarayonlarini baholash va nazorat qilishning samarali vositalari bilan jihozlangan.

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida kompyuter turishi hech kimga sir emas. Hozirgi kunda kompyuterlardan ta'lim tizimida asosan 4 yo'nalishda:

- O'rgatish obyekti sifatida;
- O'qitishning texnik vositasi sifatida;
- Ta'limni boshqarishda;
- Ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

Kasbiy ta'limni kompyuterda qo'llab-quvvatlash sohasining tizimli o'rganilishi 30 yildan uzunroq tarixga ega. Bu davr ichida AQSH, Fransiya, Yaponiya, Rossiya va boshqa qator davlatlarning o'quv yurtlarida turli xildagi EHMlar uchun ta'limga mo'ljallangan ko'plab kompyuter tizimlari ishlab chiqilgan. Lekin bunday tizimlarning qo'llanilish sohalari ancha kengdir. Bu – katta sanoat tashkilotlari, harbiy va jamoatchilik sohaslarida kadrlarni mustaqil tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini olib boruvchi tashkilotlardir. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda yangi murakkab qurilma va texnologiyalarni o'rganish va amalga kiritish jarayonlarini tezlashtirish uchun ularga kompyuterli o'rganish tizimlarini kiritish odatiy holga aylanib bormoqda. Chet elda o'rgatishga mo'ljallangan “yumshoq” dasturiy vositani ishlab chiqish yuqori malakali ishchilar (ruhshunoslarni, fan o'qituvchilarini, kompyuter dizaynerlarini, dasturchilarni) mehnatini talab qilgani uchun juda “qimmat” soha hisoblanadi. Shunga qaramay ko'pgina chet el firmalari ta'lim maskanlarida yangi kompyuterli o'quv tizimlari yaratilishini moliyalashtirishadi va bu sohada o'z izlanishlarini olib borishadi. Metodologik tomondan kasbiy tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlashda kompyuter vositalarining ishlab chiqilishi va qo'llanilishi

boshidan boshlab bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan turli sohalarda rivojlana boshlagan. Birinchi yo'nalish dasturiy o'rgatish g'oyalariga asoslanadi. Bunda turli fanlar bo'yicha avtomatlashtirilgan o'rgatish tizimlari ishlab chiqiladi va qo'llaniladi.

Avtomatlashtirilgan o'rgatish tizimlarining asosi bo'lib muallif-o'qituvchiga yangi o'quv materiallarini ma'lumot bazasiga kiritish, maxsus mualliflik tillari yoki boshqa tillar yordamida dasturlash imkonini beruvchi mualliflik tizimlari xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish – umumta'lim va kasbiy tayyorgarlikni kompyuterda qo'llash inson faoliyatining turli sohaslarini kompyuterlashtirishning “yumshoq” mahsulotining ikkinchi darajali ilovasi hisoblanadi. Bular qiyin hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi, matematik modellar asosida jarayonlar yoki obyektlarning xususiyatlarini o'rganuvchi alohida dasturlar yoki dastur paketlaridir. Kasbiy tayyorgarlikda bunday dasturiy tizimlarni qo'llash bizda ham, chet elda ham AUT larga nisbatan kengroq ishlatiladi, lekin yagona didaktik shaklning yo'qligi, mazmunning umumiy emasligi ularning ilmiy adabiyotlarda yaxshi yoritilmaganligiga olib keladi. Sohaviy dasturlarni o'qitishga moslashtirish bo'yicha ishlar olib borilgan ko'plab dasturlar ichidan hamda didaktik va texnik umumlashtirish urinishlarining tizimlilik bilan ajralib turadi.

V.2. Multimedia imkoniyatlari. Multimedyaning axborot ta'minoti.



80- yillar boshidan boshlab ta'limni kompyuterlashtirishning yangi yo'nalishi – sun'iy intellekt sohasida ishlashga asoslangan intellektual o'rgatuvchi tizimlar (IO'T) tez rivojlana boshladi. Boshqariluvli o'qish jarayoni modeli IO'Tlarning muhim qismi hisoblanadi, ular asosida har bir o'quvchi uchun maxsus o'qitish strategiyasi ishlab chiqilishi mumkin. IO'T lardagi ma'lumot bazalari formallashtirilgan bilimlardan tashqari o'rganilayotgan soha uchun ekspert bilimlariga ega bo'lishi mumkin. IO'Tni yaratish yo'nalishidagi ishlarning kelajagi porloq ko'ringani bilan, bugunda ular laboratoriyadagi izlanishlar darajasida qolishmoqda, bir nechta omadli misollar bo'lgani bilan ularni ishlab chiqarish hali ommaviy tus olgani yo'q.

Ta'lim kompyuter tizimlarida tasviriy taqdimotlarning ishlatilishi nafaqat o'quvchiga ma'lumot uzatish tezligini oshiradi va tushunish darajasini oshiradi, balki o'quvchida har qanday soha vakili uchun muhim bo'lgan intuitsiya, kasbiy “sezish”, tasvirli o'ylash kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Kompyuter texnologiyalari bozorlarida esa kasbiy tayyorgarlikka yanada ko'proq

imkoniyatlar bera oladigan yangiliklar paydo bo'lmogda. Bular katta hajmdagi ma'lumotni o'zida saqlay oladigan CD-ROM kompakt disklaridagi tashqi optik eslab qolish qurilmalari, gipermatnli dasturiy vositalar, multi va gippermediya vositalari, "virtual borliq" tizimlari va boshqalar. Multmediyali texnik vositalarga ega bo'lgan kompyuterlar video va audio axborotlarning didaktik imkoniyatlaridan foydalana oladi. Gipermatn tizimlari yordamida matnning o'zida murojaatlarni tashkil qilsa bo'ladi, bu esa kalit so'zlar yordamida kerakli ma'lumotni izlashni osonlashtiradi. Gipermediya tizimlari faqat matnni emas, balki tasvirni, raqamlashtirilgan tovushni, rasmlarni, multfilm va videofilmlarni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Bunday tizimlardan foydalanish elektron qo'llanmalari, spravochniklarni, kitoblarni, ensiklopediyalarni yaratish va kompakt disklar yordamida tarqatish imkonini beradi. Axborot telekommunikatsion tarmoqlarning rivoji esa sayyoramizning turli nuqtalarida saqlanayotgan katta hajmdagi ma'lumotga erishish imkonini yaratadi va shu bilan birga distansion ta'lim tizimlari rivojiga turtki beradi.

V.3. Multimediyaning dasturiy ta'minoti. Multimediyaning texnik ta'minoti.

Tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko'ra multimedyaning ma'lum ustunligi mavjud. Ushbu ikkita axborotni qabul qilish kanallarining bir-biridan keskin farq qilishiga qaramasdan, ularning multimediadagi kombinatsiyasi juda ham muvaffaqiyatli chiqqan, chunki bunda ikkala tizimning ham afzalliklaridan samarali foydalaniladi. Matn va grafika o'rtasidagi aloqalar mavzuni chuqurroq tushunishga va mental model (tasavvur)ning yaxshiroq shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.²

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'p tarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumot bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianeining muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so'roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediadan foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim.

Multimediada taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab

² <https://www.prom.uz/uz/section/po-dlya-multimedia/>

qilinadi. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga salohiyatli o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lim strategiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animatsiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emotsional darajani ta'minlab turishi mumkin. Multimedia vositalari har xil ta'lim yo'nalishlari uyg'unligida qo'llanilishi va ta'lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir xususiyatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta'lim oluvchilar bevosita o'qish orqali, ba'zilar esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko'rish orqali ta'lim olishni va bilimlarni o'zlashtirishni xush ko'radilar.

Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo'lgan ta'lim oluvchiga noan'anaviy qulaylik tug'diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta'lim oluvchilarda fonologik malakalar va o'qish malakalari o'sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi. Multimedia vositalari ta'lim berishning samarali va istiqbolli quroli bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumot manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumot massivini taqdim etish, ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animatsiyalar, video va boshqalardan foydalanish, axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.³

V.4. Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari.

Dasturiy ta'minotlar Windows operatsion sistemasi tarkibiga kirgan bo'lib, ularni chaqirish uchun «Пуск» tugmasini bosib, «Программы» bo'limiga kiramiz; undan «Стандартные» bo'limiga o'tib, undagi

³ https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies

«Развлечения» bandiga kiramiz va undan kerakli dasturni tanlab, ishga tushiramiz.

Hozirgi paytda multimedia bilan ishlash uchun mo'ljallangan ko'plab dasturlar mavjud. Ularga misol qilib, musiqani eshitish uchun mo'ljallangan Winamp (Windows amplifier– Windows ovoz kuchaytirgichi), video ko'rinishidagi axborotlarni tahrir qilish uchun mo'ljallangan Adobe Premier dasturlarini keltirish mumkin. Gipermatn va multimedia mahsulotlari tarkibiga kiruvchi giperbog'lanishlar HTML3 deb nom olgan til yordamida yaratiladi. Bu til ommaviylashib ketishining asosiy sabablaridan biri uning yordamida nafaqat bitta faylda joylashgan matnlar orasida, balki turli fayllarda va hatto turli kompyuterlarda joylashgan matn, hujjat va obyektlar orasida bog'lanish yarata olish mumkinligidir. O'qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o'qitish sifati va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan audio-video muloqot o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini va bilim olishga bo'lgan havasini oshiradi. Multimedia vositalariga, jumladan, audiokolonka, mikrofon, videoprojektor, Web kamera, TV tuner, CD-ROM va boshqalar kiradi.⁴

Multimedia vositalari o'quvchiga yakka tartibda shug'ullanish imkonini beradi. O'quvchi o'qituvchining bevosita ishtirokisiz ham materialni mustaqil o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Hozir multimedia so'zi kundalik ilmiy-ixtisosiy faoliyatimizda juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'limda multimedia texnologiyalarini tatbiq etish uchun dastlab «Multimedia nima o'zi?» degan savolga javob beraylik. Turli kasb mutaxassislari bu atamani turli xil izohlamodalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib, multimediaga shunday ta'rif berish mumkin:

Multimedia — bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o'quv materiallarini tinglovchilarga to'liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir. Multimedia hozir juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo'lib, u quyidagi an'anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda original axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi;

— video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessorning harakatchanligini, ma'lumotni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyatini, tezkor va video-xotira hajmini, katta

⁴ Петухова Е.И. Роль информационных технологий в повышении качества профессионального образования // Успехи современного естествознания. – 2013. – № 10

sig'imli tashqi xotirani, kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuv tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi;

— «inson — kompyuter — inson» interfaol muloqotining yangi darajasining ta'minlanishi nazarda tutiladi. Foydalanuvchi texnik muloqot jarayonida ancha keng va har tomonlama mukammal axborotlarni olishi osonlashadi va tezlashadi. Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida tinglovchilarni o'qitish an'anaviy ta'limdan ikki barobar samarali bo'lmoqda.⁵

Multimedia vositalari bilan ishlash. Video yoki audio multimedia vositalari kompyuterda juda ko'p dasturlar orqali ishlatiladi. Video, audio bilan ishlovchi dasturlar qatoriga, jumladan, Windows Media Player, Winamp va boshqalar kiradi. Windows Media Player dasturini ishlatishni ko'rib o'tamiz. Windows o'rnatilgan barcha kompyuterlarda Windows Media Player dasturi Windows bilan birgalikda o'rnatilgan bo'ladi. Windows Media Player dasturini ishga tushirish uchun Windowsning Pusk tugmasi bosiladi, keyin Bosh menyudagi Программы menyusini ostidan Стандартные qismiga kiriladi va Windows Media Player ishlatiladi.

V.5. Taqdimotlar muharrirlari, ularning vazifasi va imkoniyatlari. Standart shablonlar asosida taqdimotlarni yaratish.



Har qanday mutaxassis o'zining ish faoliyati davomida hamkasabalariga yoki boshqa mutaxassislarga o'zining qilayotgan ishi yoki faoliyati haqida, rejalari va takliflari haqida so'zlab berish uchun ma'ruza qilishiga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda u ma'ruzani tez, yaxshi, sifatli, tushunarli va chiroyli qilib tayyorlashi zarur bo'ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun u qanday dasturiy ta'minot turlaridan foydalanishi mumkin? Matn muharriri uning barcha muammolarini hal qilib bera oladimi? Bir necha xil dasturlardan foydanish va ularning natijalarini umumlashtirish tezda kerakli yechimga olib kelishi mumkinmi? ⁶

Power Point dasturi Microsoft Office firmasining Windows qobig'i yordamida yaratilgan bo'lib, dastur prezentatsiyalar bilan ishlash (tanishtirish, taqdimotlar qilish) uchun eng qulay dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur

⁶ 1-11 Informatika va axborot texnologiyalari: o'quv qo'llanma / M.T. Azimjanova, M.T. Muradova, M.S. Pazilov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamivati nashrivoti, 2013. — 176 b.


Yangi ko'rgazmalar yaratish. «Файл-Создать» (Fayl-Yaratish) buyruqlari bajariladi. Bu buyruqlar bajarilgandan so'ng «Создать презентацию» (Prezentatsiya yaratish) muloqot darchasi qo'llanadi. Bu darchada quyidagi funksiyalarni bajaruvchi buyruqlar mavjud:

1. Umumiy (Общие) – yangi ko'rgazma yaratish qolipi:
2. Prezentatsiya dizaynlari (Презентацию дизайн)-turli ko'rgazmalarining tasvir ranglari va qoplamalarini ko'rsatish, ya'ni rang turi, harflar ko'rinishi va ko'rgazmaning boshqa atributlarini aniqlash uchun Power Pointning dizayn shablonini tanlashingiz mumkin.



Taqdimotga dizayin qo'yish

3. Prezentatsiyalar turlari – bunda turli sohalarda ish olib borish uchun mo'ljallangan tayyor prezentatsiyalar ko'rinishlari keltirilgan.




Taqdimotlar turlari.

Slaydlar tartibida ishlash. Bu tartibda yangi slayd yaratish, uning belgisini o'zgartirish, slayd matnini tahrir qilish, slaydlarni guruhlash, rang sxemasini o'zgartirish hamda maxsus fon yaratish mumkin. Slaydga matn kiritish va uni tahrir qilish 2 usulda amalga oshiriladi:


- 1) Matn uchun ajratilgan maydonga sichqoncha ko'rsatkichi olib kelib bosiladi va kursor paydo bo'lgandan so'ng matn klaviatura orqali kiritiladi;
 - 2) Sichqoncha ko'rsatkichi «A» tugma (piktogramma)siga olib kelinib bosiladi va kerakli sohaga matn kiritiladi.
- Slaydlarni kichraytirish uchun matn bloki tanlanadi yoki obyekt va tanlash markeri chegaralari tanlanadi.

O'zgartirish kiritish uchun sichqonchanning o'ng tugmachasi bosiladi. Ekranda yordamchi (kontekсли) menyu tartib tanlab olinadi.

Struktura tartibida ishlash. «Struktura tartibiga o'tish» piktogrammasi ishga tushirilganda, tartiblangan har bir slaydning matn va rasm ko'rinishlari yoziladi. Bu tartibda matnli ma'lumotni kiritish, ko'rgazma turkumini boshqarish mumkin. Shundan so'ng bu muloqot darchasida gorizontall menyudagi «Показ слайдов» («Slaydlarni ko'rsatish») bo'limidan «Показ» buyrug'i tanlanadi va ekranda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi.



Slaydlarni saralash tartibida ishlash. Slaydlarni saralash tartibi piktogrammasi tanlangandan so'ng ekranda rasmda berilgan ko'rinishdagi darcha hosil bo'ladi.




Контекстли мену yordamida slaydlarni o'zgartirish.

Slaydlarning **Struktura** tartibida ish yuritilayotganda slaydlarda turli amallar va keyingisiga o'tkazish ishlari tugmachalari darchaning chap qismida paydo bo'ladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha va bulardan har birining vazifalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Bu tartibda ish olib borish jarayonida ekranda barcha yaratilgan slaydlar ko'rinib turadi va bu slaydlarning namoyishini tartibga solib turuvchi va almashinuvini boshqaruvchi hisoblanadi.

Maxsus effektlarni o'rnatish. Maxsus effektlarni o'rnatish deganda namoyishlarni bir slayddan boshqa slaydga o'tish tezliklari ketma-ketligi tushuniladi. Bu funktsiyani bajarish uchun Power Point dasturining «Slaydlarga o'tish» («Переход слайда») nomli muloqot darchasi ishlatilib, u gorizontal menyudagi quyidagi buyruqlar orqali ishga tushiriladi:

«Показ слайдов» (Slaydlarni ko'rsatish) – **«С начала»** (Boshidan)



Taqdimotni boshlash.

Bu buyruq bajarilgandan so'ng ekranda tegishli muloqot darchasi hosil bo'ladi.

Bu darchada ish yuritish, ya'ni bir slayddan boshqa slaydga o'tish ikki usulda olib boriladi.

1. Sichqoncha tugmasini bosish orqali.
2. Avtomatik ravishda (ma'lum tayinlangan vaqt davomida).

V.6. Taqdimot slaydlarini boshqarish. Slaydlar ustida amallar. Slaydlar shakllari va bezash.




Belgilar tartibida ishlash. Bu tartib ishga tushganda ko'rgazmadan oldin chop etilgan va namoyish vaqtida amalga oshirilgan slayd belgilari majmui uchun mavjud slayd tasviri va matn maydoni paydo bo'ladi.

Namoyish tartibida ishlash. Bu tartibda butun ekran namoyish etiladigan slayd bilan to'ladi. Keyingi slaydga o'tish uchun sichqonchanning chap tugmachasi yoki klaviaturadagi F5 tugmasi bosiladi. Agar ekranda sichqoncha harakatga keltirilsa, pastki chap burchakda taqdimotni boshqarish shakldagi tugmacha chiqadi. Bu tugmachaga sichqoncha bilan bosilganda kontekstli menyu hosil bo'ladi. Bu menyu orqali namoyishning boshqa tartiblarini boshqarish mumkin.

Namunaviy slaydlar tushunchasi. Namunaviy slaydlar darchasi shrift turlari, o'lchami, slaydlarning asosiy elementlarini birlashtirish usullarini o'z ichiga oladi. Hohishga qarab namunaviy slaydga ko'rgazmaning qolgan barcha slaydlarida paydo bo'luvchi matn yoki rasm qo'shish mumkin. Bundan sarlavhalar qo'yish, sana, vaqt hamda slayd raqami maydonlari mavjud. Namunaviy slaydlar darchasiga gorizontall menyu orqali quyidagi buyruqlar orqali o'tiladi va kerakli namunalar tanlanib olinadi.


Дизайн (Dizayn) – Все темы (Barcha mavzular) - Образец слайдов (Slaydlar namunasi).



Tayyor taqdimotlarning ko‘rinishi

Ko‘rgazmalarni saqlash. Yaratilgan ko‘rgazmalar fayllar orqali saqlanadi. Saqlash uslubi Windowsning boshqa dasturlaridagi kabi. Ko‘rgazmalarni saqlash quyidagi usullardan foydalanib bajariladi:

1. Standart uskunalar panelidagi saqlash tugmasi bosiladi yoki gorizontal menyudan «Файл» «Сохранить» buyruqlari beriladi.
2. Natijada faylni saqlash muloqot darchasi hosil bo‘ladi va bu darchada quyidagi ketma-ketlikda ish amalga oshiriladi.
3. Saqlash uchun papkasi va fayl nomi ko‘rsatiladi va «Сохранить» (Saqlansin) tugmachasi bosiladi.




Taqdimotni saqlash tartibi.

Ko‘rgazmalarni tahrirlash. Ko‘rgazmalarni saqlangandan so‘ng barcha slaydlarni alohida o‘zgartirish mumkin. Buning uchun yaratilgan slaydlarga sichqoncha ko‘rsatkichi olib kelinadi va tugmachasi bosilib, tasdiqlangandan so‘ng, kerakli o‘zgartirishlarni kiritish mumkin bo‘ladi.


Matnlarni o'zgartirish. Matnlarni o'zgartirish uchun kerakli matn maydoni tanlanadi va u yerda matn tahrir qilinadi.

Slaydlarni belgilash. Slaydlarni belgilashni qo'llab Siz rasm, diagramma, jadval yoki Windowsning ixtiyoriy obyektini qo'yishni mo'ljallab slayd tanlashingiz mumkin. Buning uchun «Файл» menyusidan «Создать» buyrug'i tanlanadi. Kerakli ko'rinishdagi slayd tanlanadi va sichqonchanning chap tugmasi bir marta bosiladi va ekranda quyidagi darcha ochiladi.




Slaydlar maketi.

Slaydlarning rangli chizmasi. Rangli chizmani qo'llab, slaydning ba'zi elementlarini (fon, matnva h.k) hamda ranglarni o'zgartirish mumkin. Bu gorizontal menyudan quyidagi buyruqlar orqali amalga oshiriladi «Дизайн» (Dizayn) - «Стили фона» (Fon uslublari). Ekranda quyidagi ko'rinishdagi darcha hosil bo'ladi:



Slaydlar rangli chizmasining ko'rinishi.

Bu darcha ikkita menyudagi iborat bo'lib, ular Standart holatdagi «Стили фона» (Fon uslublari) va Maxsus ko'rinishlardir «Формат фона» (Fon formati).




Slaydlar rangli chizmasining «Fon formati» ko‘rinishi.

V.7. Taqdimot slaydlarida obyektlardan foydalanish. Animatsiya effektlari. Taqdimot namoyishini boshqarish.




MS Power Point dasturi slaydida, Windows qo‘llab quvvatlagan har qanday obyektни joylashtirish mumkin. Buning uchun Power Point menyusining «Вставка» bandidan «Объект» qismi tanlanadi. Bizga quyidagi ko‘rinishda oyna hosil bo‘ladi:



Bu oynadan slaydda joylashtiriladigan obyekt tipi tanlanadi va OK tugmasini bossak kursor turgan joyda obyekt joylashadi va uni o‘zgartirish uchun shu obyektning muharriri ochiladi. Agar biz matnda oldindan tayyorlangan obyektни joylashtirmoqchi bo‘lsak, shu oynadan «Создание из файла» bandini yuklab, obyekt saqlangan faylni ko‘rsatishimiz kerak va OK tugmasi orqali ushbu obyekt slaydda joylashtiriladi. Siz matnga har xil

formatlash elementlarini qo'llashingiz mumkin. Sizda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- ❖ shrift yoki uning o'lchamini o'zgartirish;
- ❖ shriftning ustiga chizish yoki maxsus effekt qo'llash;
- ❖ rangini o'zgartirish;
- ❖ matnni tekislash;
- ❖ satrlar orasining intervalini o'zgartirish.



Kerakli matn ustiga kelib sichqoncha yordamida formatlash kerak bo'lgan qismi ajratiladi. Bosh menyuning **Формат** bo'limini ochib, **Шрифт** buyrug'i beriladi. Maslahat: rang tanlaganda, agar sizga bu ranglar yoqmasa, **Другой цвет** (Boshqa rang) tanlanadi. Yangi paydo bo'lgan muloqot oynasida oyna markazidagi olti burchakdagi kerakli rangni tanlang. Keyin **OK** tugmasini bosing.

Объектахх animatsiyalarni qo'llash. Animatsiya – slaydda joylashgan obyektlarning ma'lum tartibda turli harakatlar asosida hosil bo'lishidir. Slaydda animatsiyani qo'llash uchun menyuning «Показ слайдов» bandidan «Настройка анимации» qismi tanlanadi. Vazifalar sohasida quyidagi oyna hosil bo'ladi:

- **«Сортировщик слайдов»** - bu band tanlanganda esa prezentatsiya nechta slayddan iborat bo'lsa, ularning hammasi kichik ko'rinishda tartiblanib, nomerlab joylashtiriladi. Bu ko'rinish slaydlar joylarini almashtirish, ularni joylashtirishda qulay;
- **«Страницы заметок»** - bu band tanlanganda prezentatsiyaning bir slaydi ekranning yarmiga va shu slayd uchun ma'lumot kiritish uchun joy beriladi. Prezentatsiya haqidagi ma'lumotni eslash uchun qulay ko'rinish;
- **«Показ слайдов»** – Slaydlarni birin ketin, animatsiyalari bilan ko'rsatish tartiblarini inobatga olib to'liq ekranda namoyish etadi. Prezentatsiya tayyor bo'lganda uni namoyish qilish uchun qo'llaniladi.

V.8. Talabalarining ma'naviy dunyoqarashi va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish.



Dunyoda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni qaror toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy faollikning pedagogik mexanizmlari sifatida talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy-madaniy asoslari, taraqqiyot g'oyalariga ongli munosabati, texnokratik fikrlashini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Respublikamizda oliy ta'lim mazmuni va kadrlar tayyorlash jarayonlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga talabalarining bo'lajak kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini to'liq anglanishiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas'uliyatni va munosabatlarni qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"da jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini

rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyatini oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu esa talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik modeli va auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini takomillashtirishni talab etadi.



Nazorat uchun topshiriqlar:

- 1.1.** Multimedia tushunchasi. Multimedia tizimlari deganda nimalarni bilasiz?
- 1.2.** Multimedia imkoniyatlari. Multimedyaning axborot taʼminoti haqida gapirib bering.
- 1.3.** Multimedyaning dasturiy taʼminoti. Multimedyaning texnik taʼminoti deb nimaga aytiladi?
- 1.4.** Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari haqida bilganlarizni gapirib bering.
- 1.5.** Taqdimotlar muharrirlari, ularning vazifasi va imkoniyatlari. Standart shablonlar asosida taqdimotlarni yaratish nima?.
- 1.6.** Taqdimot slaydlarini boshqarish. Slaydlar ustida amallar. Slaydlar shakllari va bezash qanday amalga bajariladi?